



UZBEKISTON RESPUBLIKASI VA
UZBEKISTON DAVLAT TILUM VAZIRLIGI




"INTEGRATION OF PRAGMALINGUISTICS, FUNCTIONAL TRANSLATION STUDIES AND LANGUAGE TEACHING PROCESSES"

Machine Learning
Computers with the ability to
learn without being explicitly
programed

International Scientific Conference
February 22-23, 2023

Deep Learning
Computers that learn by
adapting itself to new
data



Section 1: Cognitology and cultural linguistics in modern linguistics.

Section 2: Literary criticism and society.

Section 3: Problems of comparative typology and translation studies, modern problems of philology.

Section 4: Integration of communicative technologies in language learning.



For more info please scan

**THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS
BUKHARA STATE UNIVERSITY**

English Linguistics Department

**PROCEEDINGS
of materials for international scientific-theoretical conference on the topic**

**PRAGMA LINGUISTICS, FUNCTIONAL TRANSLATION
AND INTEGRATION OF LANGUAGE TEACHING PROCESSES**

February 23-24, 2023

Bukhara 2023

Proceedings of the conference on the topic **Pragmalinguistics, Functional Translations and Integration of Language Teaching Processes**, compiled and prepared for publication by M.U.Saidova, N.J.Bobojonova, Kh.Kh.Kadirova; Bukhara; 2023, 368 pages

The proceedings consists of articles and thesis of Uzbek scientists, senior teachers, scientific and independent researchers dedicated to the issues as production of scientific and literary works in foreign languages, electronic course books, journals and magazines designed with specialized pictures, the role of studying the Common European Framework of Reference levels (CEFR), psychological aspects of teaching a foreign language to young learners, the importance and problems of language features in learning a foreign language, language and intercultural communication methods, issues of linguistics and literary studies, the role of best practices of stylistic scientists, etc. The proceedings can be used by researchers, senior teachers, independent researchers, graduate students and students interested in language learning problems.

Editorial board:

Professor O.K.Khamidov, Professor T.H.Rasulov,
Professor M.K.Bakaeva, Professor D.S.Uraeva, Associate Professor
N.B.Ataboev, Associate Professor Z.I.Rasulov (responsible editor),
M.U.Saidova (responsible secretary)

Prepared for publication:

M.U.Saidova, N.J.Bobojonova, Kh.Kh.Kadirova;

Reviewers:

Candidate of Philological Sciences, Professor M.H.Alimova
Candidate of Philological Sciences, Associate Professor N.B.Bakaev
Candidate of Philological Sciences, Associate Professor Z.B.Toshev

The proceedings were discussed and recommended for publication in the Scientific-methodical Council of Bukhara State University № 04, date 03.04.2023

Insoniyatni mehnatga undovchi shu kabi aforizmlar ingliz millatida ham ko'p uchraydi. Xususan, "I'm a great believer in luck, and I find the harder I work, the more I have of it" (Thomas Jefferson), "Work hard, have fun, make history" (Jeff Bezos), "Without labor, nothing prospers" (Sophocles) kabi mashhur faylasuf, olim va biznesmenlar tomonidan bildirilgan ushbu hikmatli so'zlar insonni mashaqqatlarga qaramay mehnat qilib porloq kelajak yaratishga turtki beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek va ingliz xalqida mehnatkashlik konsepti halol mehnat, osoyishtalik, rohat, muvaffaqiyat sifatida inson ongida gavdalanadi. Har ikkala millat maqol va aforizmlari xalqning insonlarning halol mehnatini qay darajada qadrlanishini yaqqol ko'rsatib beradi. O'zbek va ingliz xalqining xususiyatlarini o'rganishda turli lingvistik birliklar bu ikki xalqning o'ziga yarasha o'xshash va farqli tomonlarini ko'rsatib bera oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Safarov Sh.Kognitiv tilshunoslik.Sangzor nashriyoti.Jizzax-2006
2. Toliboyeva M.Sh.Konsept-til va madaniyat olam manzarasini ifodalovchi vosita.November.2022.https://t.me/Erus_uz
3. Tursunov, M. (2022). PROVERB AS AN ESSENTIAL LEXICAL UNIT REPRESENTING NATIONAL CULTURE AND IDENTITY. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 22(22).
4. Gadoyeva.M.I. Mehnat va mehnatsevarlik haqidagi ingliz va o'zbek maqollarining semantic tahlili.International Scientific conference. December 18-19.2021.<http://www.conferenceseries.info>
5. Иванов.Е.Е., "Лингвистик афоризма" –М.,66с.2016г
6. <https://maqollar.uz/cards/category/mehnat-hunar>

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MEHNATNI ULUG'LOVCHI MAQOLLARNING SEMANTIK TAHLILI

Tursunov Mirzo Mahmudovich
dotsent, BuxDU
Umarova Zebiniso Nizom qizi
magistrant BuxDU

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi mehnat va mehnatsevarlik to'g'risidagi maqollarning semantik doirasi, ikki tildagi maqollarning bir xil ma'no-mazmunga ega muqobil variantini topishning muhimligi hamda mehnatni ulug'lovchi maqollarning jamiyatda tutgan o'rni to'g'risida so'z boradi.

Annotation. This article deals with the semantic scope of proverbs about labour and diligence in English and Uzbek languages, the importance of finding an

alternative version of proverbs with the same meaning in two languages, and the role of proverbs praising work in society.

Аннотация. В данной статье рассматривается смысловый объем пословиц о труде и усердии в английском и узбекском языках, важность поиска альтернативного варианта пословиц с одинаковым значением в двух языках, а также роль пословиц, восхваляющих труд, в обществе.

Kalit so'zlar: maqol, mehnat, mehnatsevarlik, dangasalik, pand-nasihati, semantik doira, semantik tahlil, ma'no, ekvivalentlik.

Key words: proverb, work, diligence, laziness, advice, semantic circle, semantic analysis, meaning, equivalence.

Ключевые слова: пословица, труд, трудолюбие, лень, совет, смысловый круг, семантический анализ, значение, эквивалентность.

Maqollar xalq og'zaki ijodi namunasi bo'lib, qaysi tilda yaratilmasin, ularning mavzu doirasi xilma-xildir. Biroq ayrim mavzudagi maqollar bir tilda ikkinchi tilga nisbatan ko'proq uchrashi mumkin. Buning sababi ko'p sonli maqollarni qamrab oluvchi mavzular xalq hayotining asosiy bo'g'inini tashkil qilishidadir, ya'ni, bunda aynan yaratuvchi xalqning o'ziga xos mentaliteti, tarixi, udum va an'analari kabilarning asosiy yetakchi rolda turadi. Mashhur tilshunos Vladimir Ivanovich Dal aytganidek, "maqollar to'plami – bu xalq tilidan, tajribadan olingan hikmatlar majmuasi, sog'lom aql sarasi, xalqning hayotda orttirgan haqiqati"¹¹³.

Oila, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, vatanni sevish, do'stlik va qarindoshurug'chilik munosabatlariga jiddiy qarash, insonlarni yaxshilikka da'vat etish o'zbek maqollarida yetakchi mavzular bo'lsa, uy hayvonlariga bo'lgan mehrning kuchliligi, inson qadrining ulug'ligi ingliz xalq maqollarida ko'proq gavdalanadi.

Maqollar qaysi tilda yaratilishidan qat'iy nazar, ularning semantik tahlil qilinishi maqollardagi muhim qirralarni ochib berishga ko'maklashadi. Maqollarda semantik ma'no doirasi juda keng bo'lib, ular o'zida ulkan voqelikni ifodalaydi.

Ingliz va o'zbek tillarida yaratilgan maqollar orasida mehnat va mehnatsevarlik to'g'risidagi maqollar mavzusiga to'xtalib o'tsak. Mehnat qilgan insonning elda aziz bo'lishi va xor bo'lmasligi hamda mehnatsevarlik orqali obro' orttirishi kabilar qadim o'tmish va hozirda ham o'z tasdig'ini topmoqda. Yaqin kelajakda ham aynan shu xislatlarga ega shaxslar jamiyatda e'zozlanishi barchamizga sir emas. Ikki tilda ham mehnatsevar inson ulug'lanib, dangasa kishilar qoralanadi. "Actions speak louder than words", ya'ni "Gap bilguncha, ish bil" maqolida ham mehnat qilishga undash nazarda tutilmoqda. Yoki boshqa bir o'zbek tilida ekvivalenti mavjud maqollardan biri "Never put off till tomorrow what may be done today", ya'ni "Bugungi ishni ertaga qo'yma" maqolida ham vaqtni tejash va tezroq ishni bajarish ko'zda tutilgan.

Yuqoridagi misollardan shu ma'lum bo'ladiki, mehnatsevar inson hammaga birdek manzur bo'ladi. Bu esa har ikkala xalqning aynan shunday xislatlarga ega

¹¹³ Порудоминский В.И. Жизнь и слово: Даль. Повествование. – М.: Мол. Гвардия, 1985. – 121 с.

ekanligini ko'rsatadi hamda ingliz va o'zbek millatlari o'z nutqida bevosita ushbu yo'sindagi maqollardan keng foydalanadi. Shu o'rinda ularning semantik doirasi, ya'ni ma'no ko'lamiga e'tibor qaratsak. Ingliz tilidagi "Chief cook and bottle washer" maqolini semantik tahlil qiladigan bo'lsak, bunda to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilganda, bir insonning ham oshpaz, ham idish yuvuvchiligi anglanadi, biroq mazmuniga qaralganda, bir insonning bir vaqtning o'zida bir nechta muhim bo'lgan yoki bo'lmagan ishlar bilan shug'ullanishi tushuniladi. Maqol insonlarni mehnat qilishga undash va mehnatdan qochmaslik kabi tarbiyaviy ahamiyatga ega xislatlarga chorlamoqda. O'zbek tilida esa ushbu maqolning aynan so'zma-so'z tarjima qilinganda o'xshash ekvivalentligi mavjud bo'lmasa-da, biroq "Bir yigitga yetmish hunar oz" maqoli bilan ma'no jihatidan yaqin turadi. Ikki tilda ham maqol o'z jozibasini yo'qotmagan va xalq tomonidan nutqda keng qo'llaniladi.

Asarlarda ham buning yaqqol isbotini ko'rish mumkin. Jumladan, quyidagi misolda: "Hunar bo'lmasa, bunaqa soqol-u bunaqa izzat-ikrom qayoqda. Ha, otobobolarimiz: "Bir yigitga yetmish ikki hunar oz", deb bekor aytishmagan ekan.¹¹⁴ Ushbu parchada keltirib o'tilgan "Bir yigitga yetmish ikki hunar oz" maqoli orqali yozuvchi o'zbek yigitlarining nechog'lik mehnatsevar va hunarli ekanliklarini qisqa va lo'nda qilib o'quvchiga yetkazmoqda. Ushbu maqolga yaqin ma'nodagi janr namunasi ingliz tilida ham mavjudligini inobatga olsak, ingliz xalqida ham mehnatsevarlik ulug'lanishi va xalq orasida mehnatkash insonlar borligini anglaymiz.

Yuqorida aytganimizdek, maqollar qaysi tilda yaratilgan bo'lmasin, insonlarni doimo to'g'ri yo'lga boshlaydi va oldindan bo'lishi muqarrar yomon hodisalarning oldini oladi.¹¹⁵ "He that will not work shall not eat" ingliz xalq maqolida mehnat qilgan insongina o'z ishiga yarasha mukofotini oladi, dangasa inson esa och qolishi muqarrar, ma'nosi ifodalanmoqda. Bunda yaxshi hayot kechirmoqchi insonlar mehnat qilishi, mehnatdan qochib, birovga yuk bo'lib yurganlar esa oxir-oqibat el ichida izza bo'lishi ta'kidlanmoqda.

O'zbek tilida esa mazkur maqolning muqobil varianti sifatida "Ishlagan - tishlaydi" tarzida keltirsak bo'ladi. Maqolning har ikkala tildagi umumiy ma'nosi shuki, mehnat qilgan inson hech qachon hech kimga zor bo'lmaydi, o'z kunini o'zi ko'ra oladi. Darhaqiqat, o'zbek va ingliz xalq maqollari tarkibida mehnat va mehnatsevarlik haqidagi maqollarning mavjudligi bu – shu xalqlarning turmush madaniyatida aynan mehnatsevarlikning ulug'lanib, dangasalik yomon illat tarzida ko'rsatilmoqda.

Ingliz tilidagi boshqa bir maqolni tahlil qiladigan bo'lsak: "Labour has a bitter root, but a sweet taste" – maqolida mehnat qilish o'zi og'ir va mashaqqatli jarayon bo'lsa-da, ammo ta'mi totli ekanligi aytilmoqda. O'zbek tilida shu ma'noda aytilgan "Mehnat, mehnatning tagi rohat" yoki "Mehnat qilib topganing – qand-u asal totganing" tarzidagi maqollarni misol qilib keltirsak, aynan shu ma'nonni beradi, nazarimizda. Ikkala tilda yaratilgan semantik doirasi mehnat qilish oson

¹¹⁴ Yoqubov O. Er boshiga ish tushsa. Saylanma. T.1987. – 231 b.

¹¹⁵ Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. -T.: O'qituvchi, 1990.

emasligini, biroq uning poyoni insonga rohat-farog'at olib kelishi g'oyalarini ilgari surmoqda. Har ikki xalq maqollarida ham xulosa ijobiy, ya'ni shirin va totli hayot. Hukm esa, biz bilgan ish, harakat va doimo olg'a intilishdir. Bundan ma'lum bo'ladiki, maqollar qaysi tilda yaratilmasin, ular jamiyatdagi insonlarning hayot jarayoni va bajaradigan ishlariga taalluqli hisoblanadi.¹¹⁶

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, maqollar ko'p asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qat'iy ifodalab, o'zida ma'no xilma-xilligi, iboralar turg'unligi, shakliy barqarorlikni saqlaydi. Yillar, asrlar osha o'z ma'nosini yo'qotmaydi. Qo'llanilish o'rniga qarab ularning semantik doirasi doimiy ravishda kengayib boradi. Aynan biz ko'rib, o'rganib, tahlil qilgan ikki tildagi maqollar so'zimiz isbotidir. Ya'ni bir tilda yaratilgan maqolning ikkinchi tilda mavjud muqobilini topishda, uni boshqa tilga tarjima qilishda ma'no munosabati juda muhim sanaladi. Buning uchun esa, avvalo, maqolning asl ma'nosini chuqur anglash, uni o'rganish talab etiladi. Birgina ma'noning o'zgarishi orqali boshqa mazmun hosil bo'lib, o'quvchiga umuman o'zgacha xulosa hosil bo'lishi mumkin. Xalq og'zaki ijodining eng nodir merosi bo'lmish maqollarning ma'no-mohiyati, undagi bildirilgan xulosa va hukm kishilar tomonidan chuqur anglab yetilsagina, maqollar to'g'ri yo'l ko'rsata oladi. Insonlarni yaxshilikka chorlash, do'stlik, mehr-muhabbat, oilaga sadoqat, ota-onaga hurmat, vatanni sevish, mehnatsevarlik kabi sanog'i yo'q mavzulardagi maqollar qaysi tilda yaratilganligidan qat'iy nazar, ular insonlarga pand-nasihat va ko'mak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Порудоминский В.И. Жизнь и слово: Даль. Повествование. – М.: Мол. Гвардия, 1985
2. Yoqubov O. Er boshiga ish tushsa. Saylanma. T.1987.
3. Lakoff&Torner, More than cool reason: a field guide to poetic metaphor. 1989
4. Makhmudovich, T. M. dotsent, PhD, Bukhara State University, Uzbekistan. *SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY*, 105.
5. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. -T.: O'qituvchi, 1990
6. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari . T.:Sharq, 2005.
7. O'zbek xalq maqollari, 2-tom T.: Fan. 1987.
8. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Semantika>
9. Расулов, З. И. (2010). Принцип материале английского языка 94
10. Izomovich, R. Z., & Shavkatovich, S. X. UDC: 82 REDUCTION AS THE WAY OF THE LANGUAGE ECONOMY MANIFESTATION. *SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY*, 68(15), 41-44. https://buxdu.uz/media/jurnallar/ilmiy_axborot/ilmiy_axborot_6_son_2020.pdf#page=70.

¹¹⁶Lakoff&Torner. More than cool reason: a field guide to poetic metaphor. 1989

11. Rasulov, Z. I., & Saidov, K. S. (2022). Linguistic Economy as an Inseparable Law of Language Evolution. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 8–12. https://uniwork.buxdu.uz/resurs/14162_1_B0C234AB2BF7FF280FE2B272EAEA790F05DDC162.pdf

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI FRAZEOLOGIK OLAMI TASVIRI

TAHLILI

Tursunov Mirzo Mahmudovich
dotsent, BuxDU
Egamova Shahnoza Asrorovna
magistrant, BuxDU

Annotatsiya: Ushbu tezisdan frazeologiya va frazeologik birlik tushunchasi, uning kelib chiqishi va xalq madaniy me'rosida tutgan o'rni, uning qay darajada o'rganilganligi tahlil qilingan. Shuningdek, ingliz va o'zbek tillari frazeologik olami tasviri tahlil qilingan bo'lib, har ikkala tilga xos iboralardan namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: frazeologiya, frazeologik birlik, frazeologizmlar, frazeologik ma'no, leksik ma'no, frazeologik olam.

Annotation: this thesis analyzes the concept of phraseology and phraseological unit, its origin and role in the cultural norm of the people, to what extent it is studied. Also, the image of the phraseological world of English and Uzbek languages is analyzed, examples of expressions specific to both languages are presented.

Keywords: phraseology, phraseological combination, phraseologisms, phraseological meaning, lexical meaning, phraseological universe.

Аннотация: в данной тезис анализируется понятие фразеологии и фразеологической единицы, ее происхождение и роль в культурной норме народа, в какой степени она изучена. Также анализируется образ фразеологического мира английского и узбекского языков, приводятся примеры выражений, характерных для обоих языков.

Ключевые слова: фразеология, фразеологическое сочетание, фразеологизмы, фразеологическое значение, лексическое значение, фразеологический мир.

Avvalambor frazeologiya o'zi nima degan savolga javob izlaydigan bo'lsak, u tilshunoslikning alohida bir qismi bo'lib, fraza ya'ni iboralar, ularning tuzilishi, ma'nosi bilan shug'ullanadi. Frazeologiya fan sifatida shakllangandan beri ko'p

SECTION III: PROBLEMS OF COMPARATIVE TYPOLOGY AND TRANSLATION STUDIES, MODERN PROBLEMS OF PHILOLOGY

- Rasulov Z.I., Akramova M.B.* Kompresiyaning sinxron tarjimadagi o'rnini.....
- Saidova M.U., Jamolova M.B.* O'zbek ertaklaridagi qahramonlarning mifologik asoslari.....
- Gadoyeva M.I., Saitqulova Ch.* O'zbek va ingliz tillarida nutq fe'llarining funksional-kognitiv tadqiqi.....
- Tursunov M.M., Rahmatullayeva A.T.* "Mehnatsevarlik" konseptining ingliz va o'zbek tillaridagi leksik birliklar yordamida ifoda etish usullari.....
- Tursunov M. M., Umarova Z.N.* Ingliz va o'zbek tillaridagi mehnatni ulug'lovchi maqollarning semantik tahlili.....
- Tursunov M.M., Egamova Sh.A.* Ingliz va o'zbek tillari frazeologik olami tasviri tahlili.....
- Axmedova S.H., Mizrobova V.R.* Ingliz va o'zbek badiiy diskursida gender xususiyatlarining lingvokulturologik tahlili.....
- Ro'ziyev Y.B., Halimova Sh.Sh.* Nemis va o'zbek tillarida o'tgan zamoni ifodalovchi morfologik vositalar tasnifi va sintaktik xususiyatlari.....
- Usmonova Z.Kh.* The main peculiarities of translation studies: translator's skill...283
- Jumayev E.B., Nurullayeva G.X.* Nemis tilshunosligida "es" va "man" ning ifodalanishi.....
- Kobilova A.B., Ruziyeva D.* Linguistic features of advertisement in English and Uzbek languages.....
- Majidova D.A.* BADIY TARJIMANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....
- Qodirova A.* Sinxron tarjimada duch kelinadigan qiyinchilik va muammolar.....
- Umarova Z.N.* Ingliz va o'zbek tillaridagi mehnatni ulug'lovchi maqollarning semantik tahlili.....
- Xalilova G.A.* Замонавий тилшуносликда киёсий-тарихий ёндашув ва таржима масалалари.....
- Азимова М.А.* "Success" / "муваффақият" лексемаларининг лексик майдондаги таркибий таҳлили.....

SECTION IV: INTEGRATION OF COMMUNICATIVE TECHNOLOGIES IN LANGUAGE LEARNING

- Rasulov Z.I., Razoqova K.S.* The importance of cultural awareness in English language teaching.....
- Rasulov Z.I., Nurulloyeva M.* Til o'qitishda manipulyatsiyaning o'rnini va muhim ahamiyati.....
- Rakhmatova M.M., Bekniyozova F.U.* Analysis of observations on problems arising in the formation of writing skills in a foreign language.....
- Saidova M.U., Aliyeva G.H.* Classroom teaching strategies and techniques of working with smartest students.....
- Saidova M.U., Zabiyeva V.Kh.* Ways to develop speaking skills in teaching English..